
The Continuous Categorization of Space through Binary Oppositions in Uzbek and English Folklore Onomastics

Matyakubov Xakimboy Khamidjanovich³

greathakim9091@mail.ru

Doctoral Researcher,
Khorezm Mamun Academy

Annotation *This article explores the categorization of the concept of space in Uzbek and English folklore onomastics through the framework of binary oppositions. The study provides a comparative analysis of the semantic, cognitive, and linguocultural characteristics of spatial names occurring in folklore texts. Particular attention is devoted to oppositions such as "self-other," "sacred-ordinary," "center-periphery," "earth-sky," and "near-far," which reflect the worldview, mythological thinking, and cultural memory of the people. The research demonstrates that spatial onyms in folklore are closely connected with historical experience, national values, and ethnocultural perceptions. The article identifies both common typological features and national-cultural peculiarities in the representation of space within Uzbek and English folklore traditions. Special emphasis is placed on the analysis of sacred spaces, border territories, and images of unknown or dangerous places that carry symbolic meanings in folk consciousness. Through the study of spatial representations, the article reveals how folklore preserves collective cultural knowledge and reflects traditional systems of values. The findings contribute to a deeper understanding of the onomastic landscape of spatial concepts in folklore texts and provide important theoretical and practical insights for comparative folklore studies, cognitive linguistics, ethnolinguistics, and linguocultural research. Along with this, the role of theonyms in the formation of new words within a particular ethnos was examined.*

Keywords *Folklore onomastics, spatial names, binary opposition, linguoculturology, cognitive analysis, folklore texts, comparative linguistics*

O'zbek va ingliz folklor onomastikasida makon doimiy ravishda binar oppozitsiyalar (qarama-qarshilik) asosida kategoriyalashishi

Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich

greathakim9091@mail.ru

Doktarant,
Xorazm Ma'mun akademiyasi

Annotatsiya *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz folklor onomastikasida makon tushunchasining binar oppozitsiyalar asosida kategoriyalanishi ilmiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotda folklor matnlarida uchraydigan makon nomlarining semantik, kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganiladi. Xususan, "o'zga-o'z", "muqaddas-oddiy", "markaz-cheikka", "yer-osmon", "yaqin-uzoq" kabi qarama-qarshi makoniy konseptlarning xalq tafakkuri, mifologik qarashlari hamda madaniy xotirasidagi o'rni yoritiladi. Folklor matnlarida uchraydigan makon nomlari xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va etnomadaniy dunyoqarashi bilan*

³ Matyakubov X.Kh. — ORCID: 0009-0001-7509-633X

chambarchas bog'liq ekanligi ko'rsatib beriladi. Maqolada o'zbek va ingliz folkloridagi makon obrazlari o'rtasidagi umumiy tipologik xususiyatlar hamda milliy-madaniy farqlar ochib beriladi. Ayniqsa, muqaddas makon, chegara hududlari, noma'lum yoki xavfli joylar tasviri orqali xalq ongida shakllangan ramziy ma'nolar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari folklor onomastikasida makon konseptining onomastik manzarasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi hamda qiyosiy folklorshunoslik, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalari uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, teonimlar ma'lum bir etnosda yangi so'z yaratilishidagi o'rni tahrirga tortildi.

Kalit so'zlar *Folklor onomastikasi, makon nomlari, binar oppozitsiya, lingvokulturologiya, kognitiv tahlil, folklor matnlari, qiyosiy tilshunoslik*

Категоризация пространства в узбекской и английской фольклорной ономастике на основе бинарных оппозиций (противопоставлений)

Матякубов Хакимбой Хамиджанович
greathakim9091@mail.ru
Докторант,
Хорезмская академия Маъмуна

Аннотация *В данной статье исследуется категоризация понятия пространства в узбекской и английской фольклорной ономастике на основе бинарных оппозиций. Работа посвящена сравнительному анализу семантических, когнитивных и лингвокультурологических особенностей пространственных наименований, функционирующих в фольклорных текстах. Особое внимание уделяется таким противопоставлениям, как «свой-чужой», «священный-обыденный», «центр-периферия», «земля-небо», «близкий-далёкий», которые отражают особенности народного мировоззрения, мифологического мышления и культурной памяти. В статье показано, что пространственные онимы в фольклоре тесно связаны с историческим опытом народа, его духовными ценностями и этнокультурными представлениями. Анализируются как общие типологические черты пространственных образов в узбекском и английском фольклоре, так и их национально-культурные особенности. Особое место занимает исследование сакральных пространств, пограничных территорий, а также образов неизвестных и опасных мест, имеющих символическое значение в народном сознании. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию ономастической картины пространства в фольклоре и представляют научную ценность для сравнительного фольклороведения, когнитивной лингвистики и лингвокультурологии. Вместе с этим была рассмотрена роль теонимов в образовании новых слов у определённого этноса.*

Ключевые слова *Фольклорная ономастика, пространственные имена, бинарная оппозиция, лингвокультурология, когнитивный анализ, фольклорные тексты, сравнительное языкознание*

Kirish

Folklor xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va madaniy tafakkurini aks ettiruvchi noyob manbadir. Folklor matnlarida qo'llanadigan onomastik birliklar, xususan, makon nomlari xalqning borliqni qanday idrok etishini namoyon qiladi. O'zbek va ingliz folklor onomastikasida makon tushunchasi ko'pincha binar oppozitsiyalar asosida kategoriyalashadi. Bunday qarama-qarshi juftliklar xalq tafakkurida olamni tartiblash, yaxshilik va yomonlikni ajratish, ijtimoiy hamda mifologik qarashlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Folklor asarlarida "yaqin-uzoq", "o'zga-o'z", "yer-osmon", "tog'-vodiy", "shahar-cho'l", "muqaddas-xavfli" kabi makoniy oppozitsiyalar orqali insonning atrof-muhit bilan munosabati yoritiladi. O'zbek folklorida cho'l, sahro, tog' va ziyoratgoh kabi makonlar muayyan ramziy ma'nolar bilan bog'langan bo'lsa, ingliz folklorida o'rmon, qal'a, botqoqlik yoki noma'lum hududlar ko'proq sirli va xavfli makon sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan folklor onomastikasidagi makon nomlari nafaqat geografik tushunchani, balki xalqning mental-madaniy qarashlarini ham ifodalaydi. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz folklor onomastikasida makonning binar oppozitsiyalar asosida kategoriyalanishi qiyosiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda folklor matnlaridagi makon nomlarining semantik, lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlari tahlil qilinib, ikki xalqning olam manzarasidagi umumiy va milliy o'ziga xos jihatlar aniqlanadi. O'zbek va ingliz folklor onomastikasida makon doimiy ravishda binar oppozitsiyalar (qarama-qarshilik) asosida kategoriyalashtiriladi. Bu yerda toponimlar ikkita zid paradigmatic maydonni tashkil etadi:

Adabiyotlar tahlili va Metodologiyasi

1. Antagonistik makonlar paradigmasi (Destructive Locus). Bu paradigmaga mansub onimlar yovuzlik, zulmat va xavf-xatar semalarini o'zida jamlaydi. O'zbek

ertak onomastikasidagi *Qora qasr*, *Zulmat vodiysi*, *Ajdarho g'ori*, *Olovli daryo* kabi birliklar qahramonning irodasi sinaladigan, kaos va destruktiv kuchlar boshqaradigan hududlarni anglatadi (Примов, 2009). Ingliz lingvomadaniyatida ushbu paradigma *Forbidden Forest* (Taqiqlangan o'rmon), *Tower of Darkness* (Zulmat minorasi) yoki *Dreadful Marsh* (Dahshatli botqoq) kabi onimlar orqali ifodalanadi. Tarjimada ushbu onimlarning "qo'rquv va sinov" semasini qayta tiklash uchun nishon tildagi etnomadaniy assotsiatsiyalarni (masalan, *Qora* yoki *Dark* ranglarining yovuzlik ramzi ekanini) to'g'ri yo'naltirish lozim.

2. Qahramonlik va sakral makonlar paradigmasi (Sacred Locus). Bu paradigma adolat, baxt va najot semalarini tashuvchi onimlarni o'z ichiga oladi. O'zbek tafakkuridagi *Oq shahar*, *Zumrad vodiysi*, *Tillo shahar*, *Oltin bog'* kabi nomlar qahramon intiladigan ideal makon – onomastik Utopiyaning lisoniy ko'rinishidir. Ingliz ertaklaridagi *Crystal Palace* (Billur saroy), *Valley of Mercy* (Marhamat vodiysi) yoki *Heavenly Kingdom* (Osmondagi shohlik) kabi onimlar bilan ushbu modellar funksional izomorfizm hosil qiladi. Tarjimon uchun muhim vazifa *zumrad* yoki *crystal* kabi komponentlarning shunchaki moddiy qimmatbaholigini emas, balki ularning muqaddaslik va soflik semasini muqobil lisoniy vositalar bilan ifodalashdir. Ramziy toponimlar ertak matnida faqat dekorativ vazifani emas, balki semiotik yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. *Oq shahar* yoki *Tillo shahar* qahramonning ijtimoiy va ma'naviy yuksalish nuqtasidir. Tarjimada ushbu onimlarning "nurlilik" va "qimmatbaholik" semalarini saqlash millatning baxt haqidagi tasavvurlarini adekvat ko'rsatish imkonini beradi

(Жўраев, 1995). *Olovli daryo* yoki *Shifobaxsh buloq* kabi onimlarda makon qahramonning jismoniy va ruhiy holatini o'zgartiruvchi vosita sifatida keladi. Ingliz tilidagi *Healing Spring* va o'zbekcha *Shifobaxsh buloq* onimlaridagi "suv" komponenti poklanishning universal kognitiv kodi ekanini tasdiqlaydi.

Mehr-shafqat vodiysi yoki *Ko'kko'ngil shahri* kabi onimlar makonga insoniy tuyg'ularning proeksiya qilinishi natijasidir. Tarjimada ushbu hissiy-semantik yuklamani qayta tiklash, ayniqsa, bolalar adabiyoti va folklorshunoslik uchun yuksak ahamiyatga ega (Дадабаев, 1994). Olamning onomastik manzarasida, xususan, badiiy matn va folklorda makon nomlari qahramonning harakat traektoriyasini belgilovchi va syujet mohiyatini ochib beruvchi toponimik paradigmalarni (Toponymic Paradigm) hosil qiladi. Ingliz onomastik tafakkurida makon shunchaki voqea sodir bo'ladigan joy emas, balki qahramonning ijtimoiy va ma'naviy maqomini belgilovchi semiotik strukturadir.

Ingliz onomastikasida ayrim toponimlar asrlar davomida "milliy orzular va "ideal jamiyat" konseptlarini o'zida saqlab keladi. Tarjima jarayonida ushbu onimlarning madaniy yuklamasini saqlash muhimdir: *Camelot* – Qirol Artur afsonalarining markaziy onimi sifatida "adolatli boshqaruv" va "ritsarlik sharafi" paradigmasini tashkil etadi. Bu o'zbek onomastik manzarasi uchun *Chambil* yoki *Guliston* kabi ideal makonlar bilan funksional mushtaraklikka ega (Primov, 2010).

Neverland va *Narnia* – bu onimlar "vaqt to'xtagan" yoki "sehrli o'tish" nuqtalari bo'lib, ularning tarjimasida makonning irreal (xayoliy) tabiatini ifodalovchi lingvomadaniy semalarni qayta tiklash talab etiladi. Ingliz toponimik paradigmasida muayyan qavm yoki mavjudotlar yashaydigan yaxlit hududlarni nomlash kognitiv jihatdan muhim o'rin tutadi. *The Shire* va *Middle-earth* – J.R.R.Tolkin asarlari orqali ingliz onomastikasiga singgan ushbu onimlar muayyan ijtimoiy toifaning (masalan, xobbitlarning) "ona yurti" va "borliq markazi"

semalarini tashiydi. Bu yerda makon qahramonlarning xatti-harakatlarini nazorat qiluvchi va ularga "xavfsizlik" yoki "xatar" freymlarini yuklaydigan dominant bo'lib xizmat qiladi. *The Enchanted Forest* (Sehrli o'rmon) – bu onim ingliz onomastikasida "sirlilik va sehr" paradigmasining yadrosidir. Uning o'zbek folkloridagi muqobili sifatida *Parilar bog'i* yoki *Zulmat vodiysi* kabi onimlardagi madaniy semalarni qiyoslash mumkin.

Ingliz ertak va dostonlarida toponimning qahramon shaxsiyati bilan integratsiyalashuvi kuchli: *Sleeping Beauty's Castle* (Uyqudagi go'zal qasri) yoki *The Tower of Rapunzel* (Rapunsel minorasi) kabi onimlarda makon shaxsning taqdiri va holatini (masalan, tutqunlik yoki uyqu) anglatuvchi metaforik paradigmaga aylanadi. Tarjimada ushbu *shaxs + makon* zanjirini saqlash, voqeaning emotsional ta'sir kuchini ta'minlaydi (Примов, 2010).

Tahlil natijalari

Tabiiy makonlarni ifodalovchi toponimlar ingliz onomastik tizimida arxetipik xususiyatga ega: *The Dark Forest* va *The Crystal Cave* – ushbu onimlarda *Dark* (Zulmat) va *Crystal* (Billur) komponentlari makonning yovuzlik yoki najot manbai ekanini bildiruvchi kognitiv markerlardir. Bu o'zbek ertaklaridagi *Qora g'or* va *Tillo tog'* paradigmalari bilan mantiqiy izomorfizm hosil qiladi. *Atlantis* va *El Dorado* – ingliz tilida "yo'qotilgan donishmandlik" va "bog'lanmagan boylik" semalarini tashuvchi ushbu ekzonimlar tarjimada madaniy pretsedent sifatida saqlanishi lozim.

Olamning onomastik manzarasida kosmonimlar (fazoviy jism nomlari) inson tafakkurining eng qadimiy qatlamlarini, mifologik dunyoqarashini va milliy-madaniy kodini o'zida mujassam etgan lisoniy birliklardir. Bu nomlar shunchaki astronomik obyektlarning identifikatori emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va ma'naviy qadriyatlarini zichlashgan lisoniy arxivdir (Brontë, 2006).

O'zbek xalq kosmonimlari (*folk cosmonyms*) ko'pincha an'anaviy turmush tarzi, chorvachilik va dehqonchilik madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, yuksak darajadagi

metaforiklikka ega. "Kosmonimlarning atalish motivlari asosan osmon jismining fizik xususiyatlari, jumladan, rang-tusi, yorug'ligi, katta-kichikligi kabilar yoki osmon jismini har xil predmetlar bilan qiyoslash kabi belgilar bilan bog'liqdir". Bu esa tarjimada "madaniy bo'shliq" (*cultural gap*) hodisasini keltirib chiqaradi. O'zbek tilidagi "Temir qoziq" kosmonimini ingliz tiliga shunchaki *Polaris* (ilmiy nomi) yoki *North Star* deb o'g'irish, uning zamiridagi "ko'chmanchilik madaniyatida otni bog'lab qo'yish uchun xizmat qiluvchi mustahkam tayanch" majoziy semasini yo'qotadi. A.Primov qayd etganidek, Temir qoziq... tungi sayohatlarda astronomik kompas vazifasini o'tagan. Ingliz tilidagi *The Big Dipper* (Katta cho'mich) va o'zbek tilidagi *Yetti qaroqchi* birliklari bir xil obyekt (Ursa Major) ifodalasada, ulardagi lingvomadaniy semalar turlichadir. M.Jo'raev Katta ayiq, Yetti qaroqchi, Yetagan kabi nomlar bilan ataluvchi bu yulduz turkumi bilan bog'liq bir necha asotirlar genezisini o'rganadi. Tarjimada ushbu milliy obrazlarni asl holicha saqlash (*Seven Bandits*) ingliz kitobxonlari uchun lingvomadaniy sharh berishni taqozo etadi.

A. Primov tadqiqotida qayd etilganidek, o'zbek kosmonimiyasida "Avesto" va islomiy madaniyat bilan bog'liq sakral semalar mavjud. "Avesto"da bir qancha planeta, burj va yulduz turkumlarining nomlari borki, ular osmon jismlarining nomlanish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, *Mirrix* (*Mars*) va *Zuhro* (*Venus*). O'zbek tilidagi *Mirrix* kosmonimi tarixiy manbalarda *Baqir so'qim* (mis rangli) deb atalib, jangchilik va qizillik semasiga ega. Ingliz tilidagi *Mars* (urush xudosi) bilan bu yerda funksional mushtaraklik mavjud bo'lsa-da, Alisher Navoiy she'riyatidagi *Zuhro* va Mushtariy obrazidagi ishqiy-falsafiy semalarni ingliz tilidagi *Venus and Jupiter* juftligi to'laqonli qamrab ololmasligi mumkin (Mirzaev, 2005). Zamonaviy astronomiyada qo'llaniladigan neokosmonimlar asosan rasmiy-ilmiy motivlarga tayanib, xalqaro standartlarga bo'ysunadi. "Neokosmonimlar odatda Xalqaro astronomiya jamiyati

tomonidan muvofiqlashtirilgan holda, rasmiy hujjatlar va qarorlar asosida hosil bo'ladi. *Uzbekistaniya* (1351-asteroid) yoki *Umar Hayyom* (Oy krateri) kabi nomlar tilimizda milliy iftixor semasini tashiydi. Ushbu nomlarni ingliz tiliga o'girishda ularning memorial (xotira) funksiyasi saqlanib qoladi, biroq o'zbek tilidagi fonetik va morfologik o'zgarishlar, masalan, -iya qo'shimchasi orqali jenskiy rod hosil qilinishi tarjimada o'z ahamiyatini yo'qotadi.

O'zbek kosmonimiyasining ildizlari juda qadimiy bo'lib, unda islomgacha bo'lgan aqidalar muhrlangan. "Avesto"da bir qancha planeta, burj va yulduz turkumlarining nomlari borki, ular osmon jismlarining nomlanish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Masalan, *Tishtiriya* (*Sirius*) tadriji: "Avesto"dagi suv tangrisi va *Sirius* yulduzining nomi bo'lgan *Tishtiriya* keyinchalik *Yildiriq* (Yaltiroq yulduz) va *Tir* shakllariga transformatsiya bo'lgan. Ingliz tilidagi *Sirius* ham lotincha *yaltiroq* ma'nosini anglatib, etimologik jihatdan o'zbekcha *Yaltiroq* onimi bilan izomorflik hosil qiladi. Tarjimada ushbu etimologik mushtaraklikni ko'rsatish madaniy yaqinlikni ta'minlaydi. Onomastikada, xususan kosmonimikada, so'z yasashidan ko'ra transpozitsiya (bir turkumdan ikkinchisiga ko'chish) hodisasi faoldir. A.Primovning ilmiy xulosasiga ko'ra, "O'zbek tili kosmonimlarida yasash xususiyati yo'q... Kosmonimlarning hosil bo'lishi transpozitsiya hodisasi asosida amalga oshadi". *Egizaklar* (Javzo burjining turkiy nomi) biologik apellyativning kosmonimga ko'chishi natijasidir. Ingliz tilidagi *Gemini* (Egizaklar) ham xuddi shu kognitiv modelga asoslanadi. Tarjimada bu kabi "shaffof" semantikali onimlarni tiklash muammo tug'dirmaydi, biroq ularning ramziy ma'nolari (masalan, egizaklarning ilohiy homiyligi) tarjimada madaniy adaptatsiyani talab qilishi mumkin. Zamonaviy kosmonimlar (neokosmonimlar) kashfiyotchilar yoki mashhur shaxslar sharafiga nomlanadi. "Neokosmonimlarning nomlanish motivlari... antik mifologiyadagi ma'budalar nomlaridan foydalanish bilan boshlangan". O'zbek astronomi G'. Jalolov tomonidan kashf

etilgan asteroidlarga berilgan nomlar yoki Oydagi *Mitra* (qadimgi quyosh xudosi) krateri nomi ingliz tilida ham o'z shaklini saqlaydi. Ammo ingliz tilidagi ilmiy adabiyotlarda bu nomlarning Uzbek astronomical school (O'zbekiston astronomiya maktabi) bilan bog'liqlik semasini qayta tiklash uchun maxsus terminologik izohlar talab etiladi.

Ilmiy onomastikada kosmonimlar ko'pincha shartli belgilardan iborat bo'ladi. Xalq kosmonimlari tarkibida son ishtirok etgani holda, faqat raqamlardan iborat nomlanish yo'q... 1963 D, 1974 T A1 tarzidagi nomlar faqat neokosmonimlarga xos. Bunday "raqamli onimlar" tarjimada lingvistik nuqsonga uchramaydi, chunki ular baynalmilal kodlardir. Ammo ularning badiiy matnda qo'llanilishi (masalan, fantastik asarlarda) "texnokratik muhit" semasini yaratadi va tarjimon ushbu emotsional sovuqlikni saqlab qolishi shart.

Kosmonimlarning lingvomadaniy semalarini tarjimada qayta tiklash "madaniyatlararo transfer jarayonidir. A.Primov ta'kidlaganidek, "Har bir atoqli otning hosil bo'lish sababi bilan bog'liq ensiklopedik-etnografik ma'no mavjud. Ingliz va o'zbek tillaridagi kosmonimlar tarjimasida ushbu etnografik ma'nolarni tiklash faqatgina lug'aviy almashinuv orqali emas, balki kognitiv ekvivalentlik modelini qo'llash orqali amalga oshadi. Dissertatsiyaning to'rtinchi bobida amalga oshirilgan qiyosiy-kognitiv va lingvomadaniy tahlillar quyidagi umumiy ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi O'zbek va ingliz onomastik tizimlarida kuzatiladigan tipologik mushtaraklik (izomorfizm) inson tafakkurining borliqni kategoriyalashtirishdagi universal kognitiv andozalariga tayanadi. Nominatsiyaning *obyekt + belgi + kognitiv predikat* modeli har ikkala til uchun bir xil mantiqiy asosga ega bo'lib, makon va shaxsni individuallashtirishning bosh mexanizmi hisoblanadi.

Onomastik birliklarning milliy o'ziga xosligi ular tarkibidagi madaniy kodlar va etnik stereotiplar orqali namoyon bo'ladi. Ingliz onomastikasida institutsional boshqaruv va

huquqiy egalik (*Abbey, Castle, Church*) ustuvor bo'lsa, o'zbek onomastik tafakkurida makonni «intimizatsiya» qilish, ya'ni ma'naviy homiylik va sakral vorislik (*Ota, Avliyo, Xo'ja*) tamoyillari yetakchilik qiladi. Sakral makon nomlari (nekronimlar) aholi punktlarining shakllanishida «genetik markaz» vazifasini o'taydi. Tadqiqot jarayonida nekronimlarning oykonimlarga transformatsiyasi (masalan, *Shobbos, Norinjonbobo, Bury St Edmunds*) ijtimoiy jipslashuv va makonni ma'naviy o'zlashtirishning lingvokognitiv modeli ekani nazariy jihatdan isbotlandi. Fazoviy jism nomlarini tarjima qilishda ularning denotativ ma'nosini saqlash bilan birga, arxaik-mifologik semalarini (masalan, Temir qoziq va Sirius) qayta tiklash metodologik ahamiyat kasb etadi. Kosmonimlarning hosil bo'lishi transpozitsiya hodisasiga asoslanishi, ularning tarjimasida kognitiv ekvivalentlik modelidan foydalanishni taqozo etadi. Badiiy va folklor matnlaridagi onomastik birliklarni tarjima qilishda ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatlarini hisobga olish zarur. Onim tashuvchi aksiologik (baholovchi) semalarni tiklashda shunchaki lug'aviy almashinuv emas, balki nishon til sohibining mental dunyosidagi ma'naviy koordinatlarni qayta chizish strategiyasi yetakchilik qilishi lozim.

Xulosa

Dunyoning onomastik manzarasi obyektlarning shunchaki nomlari yig'indisi emas, balki obyektiv voqelikning inson ongida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan ikkinchi darajali murakkab lisoniy mavjudlikdir. U shaxs va makonni individuallashtirish, ularga takrorlanmas mazmun baxsh etish orqali tartibsiz borliqni tizimli ierarxik tuzilmaga soladi va insonning dunyoni anglash tamoyillarini lisoniy xotiraga muhrlaydi. Onomastik birliklarning tadrijiy rivoji izchil uch bosqichli evolyusiyani qamrab olishi dalillandi: so'zning etimologik ildizini ifodalovchi onomastikgacha, nominatsiya akti orqali maqom oluvchi onomastik va onimning nutqda ramziy ma'no kasb etib qayta turdoshlashishini ifodalovchi postonomastik bosqichlar. Antonomaziya

hodisasi tilning dinamik tabiatini ko'rsatib, atoqli otlarning til tizimi va nutq ehtiyojlari o'rtasida doimiy semantik transformatsiyada ekanligini isbotlaydi. Onomastik nominatsiyaning nomlash freymi universal logik-kognitiv tuzilishga ega bo'lib, u obyekt (nomlanayotgan makon yoki shaxs), belgi

(ustuvor xususiyat) va subyekt (nom beruvchi jamiyat va uning ijodiy tafakkuri) slotlarining lingvokognitiv sintezidan iborat ekanligi asoslab berildi. Bu freym inson miyasidagi mavjud obrazlar (geshtalt) va tanlab olingan belgi o'rtasidagi assotsiativ bog'liqlikni ta'minlovchi bosh mexanizmdir.

References:

1. Примов, А. И. (2009). *Ўзбек тили космонимларининг лисоний хусусиятлари*. Тошкент.
2. Жўраев, М. (1995). *Ўзбек халқ самовий афсоналари*. Фан.
3. Дадабаев, Х. (1994). *Астрономические наименования в старотюркских письменных памятниках XI–XV вв.* Ташкент.
4. Primov, A. I. (2010). *Ko'rsatilgan asar*.
5. Примов, А. И. (2010). *Кўрсатилган асар*.
6. Brontë, C. (2006). *Jane Eyre*. Penguin Books.
7. Мирзаев, Т., Мусоқулов, А., & Саримсоқов, Б. (Тузувчилар). (2005). *Ўзбек халқ мақоллари*. Шарқ.